



**TOSHKENT DAVLAT AGRAR UNIVERSITETI REKTORINING  
BUYRUG'I**

2024-yil 04" 09 № 1-9-6/352

Qibray tumani

**Toshkent davlat agrar universitetida "Registrator ofisi"ni  
tashkil etish to'g'risida**

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 9-iyuldagi 24-q/q-son va "Ta'lim sohasidagi loyihalar markazi" loyiha ofisining 2024-yil 9-iyuldagi 2-q/q-son "Oliy ta'lim tashkilotlarida "Registrator ofisi"ni tashkil etish to'g'risida"gi qarori ijrosini ta'minlash maqsadida

**BUYURAMAN:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev huzurida 2024-yil 6-may kuni oliy ta'limning ustuvor masalalariga bag'ishlab o'tkazilgan yig'ilishda berilgan topshiriqlar ijrosini ta'minlash hamda Qishloq xo'jaligi vazirining 2024 yil 3-iyuldagi 01/27-110-son yig'ilish bayoni, O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi va "Ta'lim sohasidagi loyihalar markazi" loyiha ofisining 2024-yil 9-iyuldagi "Oliy ta'lim tashkilotlarida "Registrator ofisi"ni tashkil etish to'g'risida"gi 24-q/q va 2-q/q-sonli qo'shma qarorlari hamda Toshkent davlat agrar universitetida o'tkazilgan Kuzatuv kengashining 2024-yil 19-avgustdagi 3-sonli yig'ilish bayonida belgilangan vazifalari ijrosini ta'minlash maqsadida Toshkent davlat agrar universiteti "Registrator ofisi" tashkil qilinsin.

2. Quyidagilar:

Toshkent davlat agrar universiteti Ilmiy Kengashining 2024 yil 29 avgustdagi 1-sonli yig'ilish bayoni bilan Toshkent davlat agrar universiteti tashkiliy tuzilmasi 1-ilovaga muvofiq tasdiqlangani ma'lumot va ijro uchun qabul qilinsin;

"Registrator ofisi" tarkibiga o'tayotgan universitetning tarkibiy bo'linmalari va lavozimlar ro'yxati 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. O'quv ishlari bo'yicha prorektor (Oblomuradov), Xodimlar bilan ishlash boshqarmasi (Xalmirzayev), Akademik faoliyat va registrator boshqarmasi (Kasimov), Yuridik bo'lim (Xusenov)ga:

**10 kun muddatda** "Registrator ofisi"ning nizomini xorijiy va mahalliy tajribalar asosida ishlab chiqish hamda o'rnatilgan tartibda tasdiqlash;

"Registrator ofisi"ning xodimlarining funksional vazifalari va lavozim yo'riqnomalarini ishlab chiqish;

**15 kun muddatda** "Registrator ofisi"ni malakali xodimlar bilan ta'minlash;

Oliy ta'limni rivojlantirish tadqiqotlar markazi bilan hamkorlikda "Registrator ofisi" xodimlari uchun seminar-treninglar hamda iqtisodiy o'qishlar tashkil qilish vazifalari yuklatilsin.

4. Raqamli ta'lim texnologiyalari markazi (Rasulov), Ta'limning kredit-modul tizimin boshqarish bo'limi (Po'latov)ga:

**3 kun muddatda** "Registrator ofisi"ni tashkil etish bo'yicha texnik vositalarga qo'yiladigan talablarni ishlab chiqish;

**ikki oy muddatda** "Hemis" dasturida "Registrator ofisi" modulini ishga tushirish hamda tegishli axborot tizimlariga integratsiya qilish choralari ko'rish vazifalari yuklatilsin

5. Moliya-iqtisod ishlari bo'yicha prorektor (Mamadiyarov), Reja-moliya bo'limi (Niyazova), Bosh hisobchi (Botirov), Texnik-foydalanish va xo'jalik bo'limi (Yuqubov)ga:

**bir hafta muddatda** "Registrator ofisi" Ta'limning kredit tizimini boshqarish bo'limi binosiga vaqtinchalik joylashtirish;

"Registrator ofisi" joylashadigan binoni joriy ta'mirlash, elektr energiyasi, isitish va sovitish tizimi bilan ta'minlash;

hujjatlarni saqlash uchun maxsus arxiv xonasini tashkil etish va seyflar bilan ta'minlash;

**15 kun muddatda** "Registrator ofisi"ni zamonaviy ofis mebellar va jihozlar bilan ta'minlash;

**15 kun muddatda** zamonaviy orgtexnika vositalari (kompyuter, printer, nusxa ko'paytirish apparatlari, Wi-Fi, veb kameralar, elektron navbat olish uskunasi, elektron tablo va x.k.) hamda targ'ibot materiallari bilan ta'minlash choralari ko'rish vazifalari yuklatilsin.

6. Moliya-iqtisod ishlari bo'yicha prorektor (Mamadiyarov), Murojaatlar bilan ishlash, nazorat va monitoring bo'limi (Berdiboyev), Reja-moliya bo'limi (Niyazova), Xodimlar bilan ishlash boshqarmasi (Xalmirzayev), Yuridik bo'lim (Xusenov):

**ikki oy muddatda** Toshkent davlat agrar universitetining yangilangan Ustavini belgilangan tartibda tasdiqlash va davlat ro'yxatidan o'tkazishni ta'minlash;

**bir hafta muddatda** yangidan tasdiqlangan tuzilmadan kelib chiqib, shtatlar jadvaliga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish hamda vazirlikka taqdim etish;

Qibray tumani Aholi bandligi ko'maklashish markaziga universitetning tarkibiy tuzilmasidagi o'zgartirishlar to'g'risidagi ma'lumotlarni taqdim etish;

**bir hafta muddatda** "Registrator ofisi" tarkibiga o'tayotgan universitetning tarkibiy bo'linmalari va lavozimlar ro'yxatidan kelib xodimlarning shtat birliklari, ularning ish haqi miqdorlarini belgilash;

universitetning shtatlar jadvaliga o'rnatilgan tartibda o'zgartirish va qo'shimchalari kiritish;

universitetning tashkiliy tuzilmasidan kelib chiqib, shtatlar jadvaliga tegishli tartibda o'zgartirishlar kiritish;

Toshkent davlat agrar universiteti tuzilmasiga kiritilgan o'zgartirishlar bo'yicha nomlari o'zgartirilgan tarkibiy bo'linmalari va faoliyati tugatilayotgan bo'limlarning rahbar va mutaxassis-xodimlari bilan mehnat qonunchiligi asosida



universitet bilan xodim o'rtasida tuzilgan mehnat shartnomasini bekor qilinishi mumkinligi to'g'risida ogohlantirilishini ta'minlash;

Qibray tumani Aholi bandligiga ko'maklashish markaziga universitetning tarkibiy tuzilmasi, fakultet va kafedralar tuzilmasidagi o'zgartirishlar to'g'risida ma'lumotlarni taqdim etish vazifalari yuklatilsin.

7. Toshkent davlat agrar universitetining 2024-yil 5-apreldagi 1-9-6/127-sonli buyrug'i ilovasi bilan tasdiqlangan Toshkent davlat agrar universiteti tashkiliy tuzilmasi o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin.

8. Mazkur buyruq ijrosini nazorat qilish O'quv ishlari bo'yicha prorektor N.Oblomuradov zimmasiga yuklatilsin.

**Asos:** O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 9-iyuldagi 24-q/q-son va "Ta'lim sohasidagi loyihalar markazi" loyiha ofisining 2024-yil 9-iyuldagi 2-q/q-son qarori hamda Toshkent davlat agrar universiteti Ilmiy Kengashining 2024 yil 29 avgustdagi 1-sonli yig'ilish bayoni.

Birinchi prorektor



S. Islamov



Toshkent davlat agrar universitetining yangilangan tashkiliy tuzilmasi\*

